

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna
Xitoy tilshunosligida 把 “ba” bo’yicha izlanishlar
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik oliy maktabi o’qituvchisi

XITOIY TILISLIGIDA 把 “BA” BO’YICHA TADQIQOT

Annotatsiya. 把 “bǎ” ieroglifi so’z sifatida xitoy tili leksikasida biroz murakkab, ammo ishlatilish ko’lami keng, moslashuvchan va ko’p qo’llaniladigan so’zlardan biri hisoblanadi. Sababi u gapda turli pozitsiyalarni egalashi bilan har xil ma’nolarni anglatadi va turli vazifalarni bajaradi. 把 “ba” ieroglifining tadqiqi bo’yicha xitoyshunos olimlar o’zlarining tadqiqotlarida ko’pgina qarashlar va fikrlar bildirib o’tganlar. Maqolada xitoyshunos olimlarning bu borada fikrlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: 把 “bǎ” old ko’makchili gap, 把 “bǎ” ieroglifi, hisob so’zi, otli birikma, to’ldiruvchi, fe’l, semantika, kognitiv, funksiya, grammatika.

Артикова Зийода Зайнитдиновна
Исследования по 把 “ba” в китайском языкознании
Ташкентский государственный университет востоковедения
Преподаватель Высшей школы китаеведения

ИССЛЕДОВАНИЕ 把 «BA» В КИТАЙСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. Иероглиф 把 “bǎ” в лексике китайского языка несколько сложен как самостоятельное слово, однако сфера его применения обширна, он гибок и часто употребляется. Причина в том, что в предложении он может занимать разные позиции, выражать различные значения и выполнять различные функции. Ученые-китаеведы, занимающиеся исследованием иероглифа 把 “ba”, в своих работах высказывают множество взглядов и мнений. В данной статье освещаются эти подходы и точки зрения китайских исследователей в области языкознания.

Ключевые слова: 把 “bǎ” конструкция с предглагольной частицей, иероглиф 把 “bǎ”, счетное слово, именная словосочетание, дополнение, глагол, семантика, когнитив, функция, грамматика.

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna
Tashkent State University of Oriental Studies
Lecturer at the Higher School of Chinese Studies

RESEARCH ON 把 “BA” IN CHINESE LINGUISTICS

Annotation. The character 把 “bǎ,” when considered as a word in Chinese vocabulary, is somewhat complex yet widely applied, flexible, and frequently used. The reason lies in its ability to occupy various positions in a sentence, convey different meanings, and perform diverse functions. Scholars who study the character 把 “ba” in Chinese linguistics have presented numerous views and opinions in their research. This article highlights those perspectives and findings of sinologists regarding this topic.

Keywords: 把 “bǎ” pre-verbal construction, 把 “bǎ” character, measure word, nominal phrase, complement, verb, semantics, cognitive, function, grammar.

Kirish

Umumiy tilshunoslikda tipologik tasnif bo’yicha hozirgi xitoy tili izolyativ tillarga mansubdir. Shu sababli xitoy tilining o’ziga xos bir qator tipologik xususiyatlari bor. Xitoy tilining asosiy xususiyatlaridan biri so’zlarning ko’p ma’noligidir. Odatda xitoy tilida bitta ieroglif bitta sodda so’zga to’g’ri keladi. Shuning uchun xitoy tilida ko’pincha so’zning semantik va grammatik ma’nolarini

o’rganilganda ieroglif muhim rol o’ynaydi. Xatto ko’p bo’g’inli so’zlarni talqin qilinganda ham ierogliflarning ma’nolari inobatga olinadi. Bizning misolimizda bitta ieroglif, ya’ni 把 “ba” ieroglifi o’zining ko’pma’noligi bilan nafaqat semantik ma’nosi ko’pligini ifodalaydi, balki polifunksional birlik sifatida ham o’rganilishini zarurligini ko’rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

把 “ba” ieroglifining tadqiqi bo'yicha xitoyshunos olimlar o'zlarining tadqiqotlarida ko'pgina qarashlar va fikrlar bildirib, hozirgi xitoy tilida keng qo'llanilayotgan 把 “bǎ” old ko'makchili gapni tuzilishi, shakllanishi bo'yicha yetarlicha ma'lumotlar keltirganlar. Masalan, 王还 Vang Xay (1984y; 1985y) 把 “ba” ol ko'makchili gapdagi to'ldiruvchini xususiyati ustida tadqiqot olib borib, uning aniqlik holatida, noaniqlik holatida va maxsus holatda ishlatilishini ko'rsatib o'tgan. 王士元 W.Wang (1964y, 1969y), 李英哲 Y. Li, (1970y), 邹科 Zou Ke (1993y; 1995y) kabi tilshunoslar 把 “bǎ” li gapni formal shakli ustida izlanishlar olib borganlar. 把 “bǎ” old ko'makchili gapning funksional tadqiqi bo'yicha 曹逢甫 Sao Fengfuning qarashlari asosiy hisoblanib, u shuni aniqlaganki, 把 “bǎ” dan keyin keladigan to'ldiruvchida gap mavzusining bir qator xususiyatlari bor, ammo u asosiy o'rinda turmaydi, deb o'tgan. 把 “ba” li gapni kognitiv tadqiqi hozirda xitoy tilshunosligida yangi bir yo'l hisoblanadi. Bu bo'yicha 张伯江 Djang Bojyang (2000y), 张旺熹 Djang Vangsi (2001y) kabi olimlarning ishlarini keltirishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar

Ammo ba'zi fikrlar borasida ularning qarashlari turlicha bo'lgan. M. Hasimoto va A.Hasimotolar 把 “bǎ” dan keyin keladigan otli birikmani kichik sodda gapning egasi bo'lib kelishini aytganlar.

Ikkinchi qarash vakillari 把 “bǎ” dan keyin keladigan otli birikma hamda fe'ldan keyin keladigan otli birikma o'rtasida mazmun jihatdan bog'langan aloqa borligini, shuning uchun boshida bu ikkita otli birikma bitta fe'lning to'ldiruvchisi bo'lganligi, keyinchalik bu birikmalardan birining o'rnini o'zgarishi natijasida 把 “bǎ” old ko'makchisini oldiga o'tganligi, biroq to'ldiruvchilik o'rnini saqlab qolganligi haqida aytib o'tganlar. 把 “bǎ” li gapni funksional tadqiqoti bo'yicha 曹逢甫 Sao Fengfu (1986/2005), 张旺熹 Djang Vangsi (1991y), 薛凤生 Syue Fengsheng (1987y, 1994), 范晓 Fan Syau (2001), angliyalik Emily Bender (2000) kabi xitoyshunos olimlar ilmiy ish olib borganlar. Shulardan 曹逢甫 Sao Fengfu gapda “asosiy mavzu” degan tushunchani kiritib, 把 “bǎ” li gapda uni ishlatilishini shunday tushuntiradi: “Agar gapdagi asosiy mavzuda ifodalanayotgan fe'l bilan sub'ektni harakati tushuntira olinsa, unda bu gapda fe'lning o'timlilik xususiyati va fe'lning 致使意义 [zhìshǐ yìyì] *majhul nisbat* xususiyati ifodalanadi.” 曹逢甫 shundan kelib chiqib, 把 “bǎ” gapda ma'no ifodalashni ikki xil turga bo'ladi: o'timlilik va o'zlik nisbatning bo'lishi.

张旺熹 Djang Vangsi (1991y) 把 “bǎ” li gapning strukturasini qo'llashda aniq sabab va natija munosabati bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan, ya'ni biron ishni sabab va natijaviy munosabatini ta'kidlab o'tish kerak bo'lsa, 把 “bǎ” li gapni strukturasini ishlatish mumkinligini aytib o'tgan.

Kognitiv lingvistikani rivojlanishi 把 “bǎ” old ko'makchili gapning bu yo'nalish bo'yicha izlanishlar olib borishga turtki bo'ldi. 张伯江 (2000y) Goldbergning konstruksiyalar grammatikasi nazariyasi asosida 把 “bǎ” li gap tuzilishini semantikasi ustida izlangan. U 把 “bǎ” ni fe'l bilan aloqasiga urg'u bermay, balki fe'l va gap konstruksiyasining o'zaro munosabatga kirishishi muhim deb hisoblagan va 把 “bǎ” li gapni mazmuni murakkab gap shakli deb aytib o'tgan. 沈家煊 Shen Jyasyuan aytib o'tgan sub'ektiv boshqaruv ta'rifi ko'pgina tilshunoslar tomonidan ma'qullangan. Tildagi sub'ektivlik uch jihatni qamrab oladi: gapirayotgan shaxsni hissiyoti, gapirayotgan shaxsning qarashi, hamda so'zlayotgan odamning anglab yetishi. Bu uchta jihat 把 “bǎ” li gapda o'zaro bog'lanib, bir butun gapni namoyon qiladi. Gapdagi ega gapning to'ldiruvchisi ustidan biron boshqaruvni amalga oshira olishi bilan belgilanadi.

把 “ba” ieroglifini hisob so'zi sifatida qilingan tadqiqotlar nisbatan kam, ulardan 叶桂柳 Ye Guychenning 清代笔记小说研究 [Qīngdài bǐjì xiǎoshuō yánjiū] (2018) 清 *Ching davri hikoyalar tadqiqi* ishida 把 “bǎ” ni hisob so'zi sifatida kelishi haqida izlanishlar bor. Bundan tashqari muallifning 明 Ming davri xitoy tilidagi hisob so'zlarning tadqiqoti bo'yicha yozgan ishida 把 “bǎ” ni hisob so'zi sifatida kelishi va uning suyuq moddalarga nisbatan ishlatish holatlarini ko'satib o'tgan.

大家见面，一把鼻涕，一把眼泪，个人诉说客人苦处。[Dàjiā jiànmiàn, yī bǎ bíti, yībǎ yǎnlèi, gèrén sùshuō kèrén kǔchù.] *Hamma ko'rishi bilan burundan ko'zdan shoshqator yoshlar oqib ketdi, bir-birlari bilan musofirlikdagi qiyinchiliklari to'g'risida gapira ketdilar.*

Bu gapda 把 “bǎ” ni hisob so'zi burun va ko'zdan oqqan yoshga nisbatan ishlatilgan.

刘世儒 Liu Shiru, 金桂桃 Jin Guytao lar ham 宋, 元, 明, 清 Song, Yuan, Ming, Ching xitoy sulolalari davrida ishlatilgan hisob so'zlar tadqiqida 把 “bǎ” hisob so'zini shu davrlardagi ishlatilishi yoritilgan. Mualliflar 把 “bǎ” hisob so'zi avval nom hisob so'zi sifatida, keyinchalik esa harakat hisob so'zi sifatida ishlatilgan deb aytib o'tganlar. Berilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 把 “bǎ” ni hisob so'zi 把 “bǎ” fe'ldan shakllangan bo'lib, uni asosiy ma'nosi qo'l harakati bilan bog'liq bo'lgani uchun, harakat hisob so'zi sifatida ishlatilganda ham qo'l harakati bilan amalga oshiriladigan ishlarga nisbatan ishlatiladi. Gapdagi o'rni ham uning nom hisob so'zi yoki harakat uchun ishlatiladigan hisob so'ziligiga qarab belgilanishi lozimligi haqida aytib o'tilgan.

那独眼老二就火了，一把揪住老三的耳朵。[Nà dúyǎn lǎoèr jiù huǒ le, yī bǎ jiūzhù lǎo sān de ěrduǒ.] *Ana u bir ko'zli akaning jahli chiqib ketib bittada ukasining qulog'ini mahkam ushlab oldi.*

武璐从钥匙环上找出一把钥匙递给我。[Wǔlù cóng yàoshi huánshàng zhǎochū yī bǎ yàoshi dìgěi wǒ.] *Vu Lu kalitlar shodasidan bitta kalitni topib menga uzatdi.*

Birinchi gapda 一把 [yībǎ] harakat hisob soʻzi boʻlib, 揪住 [jiūzhù] feʼli bilan birikib kelgan, ikkinchi gapda 一把 [yībǎ] nom hisob soʻz boʻlib, 钥匙 [yàoshi] oti bilan birikib kelgan.

把 “ba” ieroglifining feʼl, ot vazifasida kelishi boʻyicha tadqiqotlar boʻlmasa ham, olimlar oʻzlarining ishlarida uning bu funksiyalar borasida fikrlar berib oʻtganlar. Masalan Vang Lyao-i oʻzining “Основы китайской грамматики” – *Xitoy tili grammatikasi asoslari* kitobining 把 [bǎ] va 被 [bèi] boʻlimida 把 “ba” ieroglifining dastlabki feʼl maʼnosida ishlatilishi haqida gapirib oʻtgan.

左手把其袖 [zuǒshǒu bǎ qíxiù] *chap qoʻli bilan uning yengini ushlab oldi.*

Bu yerdagi 把 “ba” *qoʻlda ushlamoq* maʼnosida kelgan.

张爱民 Djang Ayming, 吴剑峰 Vu Jyangfenglar taxmin, chamani ifodalovchi yordamchi soʻzlar haqidagi izlanishlarda 把 “ba” ieroglifining yordamchi soʻz vazifasida ham kela olishi haqida gapirib oʻtganlar.

Oʻzbek xitoyshunos olimi A.A.Karimov ham oʻzining “Xitoy tilidagi hisob soʻzlar; leksik semantik, struktural va funksional tahlili” kandidatlik

dissertatsiyasida ilova boʻlimida misol tariqasida 把 “ba” ieroglifini berib, uni hisob soʻzidan tashqari boshqa soʻz turkumlarga tegishli boʻla olishi, shu bilan birga unga nisbatan ishlatiladigan ieroglifik omonomiya, polisemiya, inversiya hodisalari haqida tushuntirishlar berib ketgan. Misol uchun, uchinchi ohangdagi 把 “bǎ” har xil soʻz turkumiga tegishli, feʼl, hisob soʻzi, old koʻmakchi, ravish.

Xulosa

Xitoy tili soʻzlaridagi polifuksionallik xitoy tili grammatikasining yorqin jihatidir. U soʻz turkumlari va sintaksis boʻlaklari oʻrtasida qatʼiy bir moslashish yoʻqligiga ishora qiladi, hamda bitta soʻz sintaksisning turli boʻlaklari vazifasida kela olishiga va bunday holatlarda soʻzning xususiyatida oʻzgarish sodir boʻlmasligiga urgʻu beradi. Keltirilgan ishlardan koʻrinib turibdiki, xitoy tilshunosligida 把 “ba” bilan asosan old koʻmakchi sifatida katta tadqiqotlar olib borilgan va uni hisob soʻzi sifatida izlanishlari ham bor. Ishimizning maqsadi 把 “ba” ieroglifining barcha maʼno va funksiyalarini umumlashtirgan holda tadqiq etishdan iborat. Bunda albatta olimlarning fikriga ham tayandik, hamda oʻz fikr mulohazalarimizni, taxlillarimizni ham bayon etdik.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ван Ляо-И. Основы китайской грамматики. – Москва: Иностранная литература, 1954. – С. 120.
2. Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар [Лексик семантик, структурал ва функционал таҳлил]: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 132-141.
3. 王还. “把”字句中的宾语. // 中国语文, 第1期 – 1985.
4. Li Y.C (李英哲). What does “disposal” mean? Features of the verb and noun in chinese. – Beijing: Journal of Chinese language, 1974. – Vol,2. – №2. – P. 200-218.;
5. Zou Ke (邹科). – The syntax of the chinese BA construction. – Cambridge: Journal of linguistics, 1993. – №31. – 页. 715-736.
6. Bender Emely. The syntax of mandarin Ba: Reconsidering the verbal analysis. – Dordrecht: Journal of Eastern Asian linguistics, 2000. – №9. – P. 105-145.
7. 曹逢甫. 汉语句子与子句结构. – 北京: 北京语言大学出版社, 2005. – 页. 128.
8. 张旺熹. 把字结构的语义及其语用分析. – 北京: 语言教学与研究学报, 1991. – 第3期. – 页. 88-103.
9. 薛凤生. 试论 “把” 字句的语义特征. – 北京: 语言教学与研究学报, 1987. – 第1期. – 页 4.

Botanik terminlarni antroposentrik paradigmadagi o'rganishning ahamiyati.	
M.Ikromov.....	448
Qo'shma gap shaklidagi tez aytishlarning struktur xususiyatlari.	
N.Mamataliyeva.....	453
"Devonu lug'otit turk" bebaho qomusiy asar.	
S.Kodirova.....	457
Motivlar va ramzlar ifodasi ("anor" va "fir tree" hikoyalari misolida).	
F.Abdumalikov.....	460
Qadimgi turkiy qo'lyozmalarda kelgan zoonimlarning mushuksimonlar va itsimonlar leksik qatlamining qiyosiy tahlili va tarjimasi ("devonu lug'otit turk" va "kodeks kumanikus" qo'lyozmalari misolida).	
A.Sobitov.....	463
Ontologik modellashtirishda iyerarxik tasnif va semantik maydonlar tahlili.	
Z.Qodirova.....	469
Publisistik uslubdagi matnlarning lingvistik aspektlari.	
G.Gafurova.....	473
Ingliz terminologiyasi materiallari asosida favqulodda vaziyatlar atamalarini o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari.	
M.Badalbayeva.....	477
"Kitabu bulg'atil mushtaq fi lug'at at-turk val qifchaq" yozma obidasi. fe'llar bobi.	
B.G'aniyeva.....	481
Xitoy tilisligida 把"ba" bo'yicha tadqiqot.	
Z.Artikova.....	486
O'zbekistonda gender tenglik masalasi .	
V.Axmedova.....	489
Jorj gordon bayron ijodida jonlashtirish.	
B.Toshpulatov.....	493
Kasb-hunar va lavozim amal konseptlariga oid ijtimoiy tushunchalar hamda lisoniy nazariyalarning dunyo lingvistikasidagi talqini.	
M.Dexqonova.....	496
The emergence of the "angry young men" movement in the united kingdom in the first half of the 20th century and its impact on social, political, and economic life.	
D.Mashrabova.....	499
Ingliz tilida do'stlik/dushmanlik konseptlarini ifodalovchi maqollar.	
G.Ergasheva.....	501
Features of translating economic texts from english into uzbek.	
N.Khujanazarova.....	505
Fojeaning boshlanish nuqtasi.	
E.Imomov.....	509
Turli tizimli tillarda undov so'z-gaplarning sotsial xoslanishi.	
Z.Karimova.....	513
Turkiyshunoslikda etnografizmlarning o'rganilishi.	
G.Khabibullayeva.....	518
The importance of teaching students with the creative approach method in teaching english.	
D.Kaipbergenova.....	522
Korpus lingvistikasining shakllanishi va rivojlanishi: brown va london-lund korpuslari misolida.	
M.Obilov.....	526
Conveyance of language and culture.	
M.Khoshimov.....	529
O'zbek va Qirg'iz tilshunoslik terminlarining o'rganilishi.	
M.Ubaydullayeva.....	535
Dialog va uning pragmatik xususiyatlari.	
O.Mehmonova.....	538
Cognitive aspects of the study of "negative emotions" in linguistics.	
Z.Bakhramova.....	542
Ernest Seton Tompson ijodidagi hayvonlar haqidagi hikoyalarning takrorlanmas namunalari.	
O.Sadinov.....	545
Ingliz tilini o'qitishda ertak matnini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish.	
F.Sobirova.....	549
Mirzo Hayrullo ho'qandiy bir g'azalining matniy tadqiqi.	